
Bugun Toshloq tumanidagi 2-umumta'lim maktabida "Jaholatga qarshi ma'rifat"

Bugun Toshloq tumanidagi 2-umumta'lim maktabida "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida ekstremizm, terrorizm va missionerlikning asl qiyofasini namoyon etuvchi fotoko'rgazma va davra suhbatlari o'tkazildi. Tadbirda tumandagi professional ta'lim va maktablarning yuqori sinf o'quvchilari, MFY vakillari ishtirok etishdi. Tadbir davomida Respublika "Tasviriy Oyina" ijodiy uyushmasi raisi I. Latipov, viloyat xokimligi kotibiyati mudiri M. Xolmatov, Tuman xokimining o'rinbosari E. Madaminov, tuman IIB terrorizmga qarshi kurash bo'limi boshlig'i B. Eminov, tuman bosh imom xatibi I. To'ychievlar qatnashchilarga Terrorizm, ekstremizm va missionerlikning asl qiyofalari, ularning yoshlar ongiga salbiy ta'sirlarini aniq misollar bilan tushuntirib berdilar. Shuningdek, xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimiz haqida keng tushuntirishlar berdilar. Tadbir avvalida katnashchilarga terrorizm va ekstremizmga oid fotoko'rgazmalar xamda "Zalolatga dalolat qilayotganlar" filmi namoyish etildi.

2024-09-23 18:00:12